

**INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA OLIY TA’LIM
MUASSASALARIDA TAHSIL OLAYOTGAN BIOLOG VA EKOLOG
TALABALAR UCHUN MALAKA AMALIYOTINI TASHKIL
ETISHNING METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

Norova Nafisa Farxodovna

Shaxrisabz davlat pedagogika instituti

nafisaxonfarxodovnal@gmail.com

Annotatsiya: oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan biolog va ekolog talabalar malaka amaliyoti jarayonida ularning innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishlarini tashkil etish hamda amaliyot jarayonini muqobillashtirish asoslari

Kalit so’zlar: Biolog, ekolog, oliy ta’lim, talaba, kreativ, innovatsiya, iqtidor, pedagog, texnologiya, ta’lim, tarbiya, pedagogika, talaba, amaliyot, kompetentsiya, muqobil

Oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan biolog va ekolog talabalarni amaliyot davomida bilimlarini oshirish, dunyoqarashlarini kengaytirishda innovatsion ta’lim texnologiyalari, o’qitishning yangi, innovatsion shakl, metod va vositalar bilan tanishtirish, ular bilan ishlash ko’nikma va malakalarni hamda ularda kasbiy va pedagogik kompetentlilik sifatlari hamda kreativlikni shakllantirish muhum ahamiyatga ega. Biologiya va ekologiya yo’nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida biologiya o’qitish metodikasi o’quv modulini o’zlashtirayotgan talabalarni zamonaviy innovatsion ta’lim texnologiyalarining tashkiliy, texnik va didaktik imkoniyatlaridan xabardor bo’lish bo’lg’usi o’qituvchilarni ta’lim amaliyotida innovatsion texnologiyalardan foydalanish, o’zlarining kompetentlilik va kreativlik sifatlarini doimiy rivojlantirib borish ko’nikma va malakalarini hosil qilishga sharoit yaratadi. Ta’lim tizimining demokratiyalashuvi va insonparvarlashuvi ta’lim tizimining yangilanishi ta’lim sifatiga bo’lgan zamonaviy talabi bo’lg’usi biologiya o’qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash zarurligini ko’rsatmoqda.

Rivojlanib borayotgan jamiyat talablarini qondirish bugungi kun o’qituvchisidan chuqur nazariy bilim, yuksak manaviyat, yuqori madaniyat, Vatan ravnaqi yo’lida o’quvchilarni, talabalarni komil inson darajasida tarbiyalashda javobgarlik hissi va mas’uliyatga ega, o’z o’quvchilarining ijodiy

potensialini rivojlantirishga pedagogik qiziqishi, innovatsion faoliyatga, o‘z ustida ishlashga, kasbiy faollikka qobiliyatlilik va shu kabi boshqa bir qator sifatlarni talab etadi. Bu ta’lim tizimiga kompetentli yondoshuv asosida bo‘lg‘usi kasb egalarini yetuk mutaxasis sifatida kasbiy kompetentligini, xususan, pedagogika oliy o‘quv yurtlarining bitiruvchilarida esa kasbiy - pedagogik kompetentlilikni shakllantirish zaruratini keltirib chiqaradi. Ma’lumki, “Kasbiy kompetentli o‘qituvchi birinchidan, o‘quv-tarbiya jarayonida ijodkor ta’lim oluvchilarni shakllantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ikkinchidan, o‘z kasbiy faoliyatida ijobiy natijalarga erisha oladi va uchinchidan, shaxsiy kasbiy imkoniyatlarini amalga oshira oladi”. Buning uchun bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik tizimi talab darajasida ishlab chiqilgan bo‘lishi va unda quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur: 1. Amaliyotda o‘qituvchining kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash sifati va samaradorligini oshirish, natijaviylikni kafolatlash uchun talabalarda pedagogik va texnik bilimlar uzviylig sintezini ta’minlash zarur. 2. Bo‘lg‘usi o‘qituvchinng shaxsiy sifatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish lozim. 3. Bo‘lg‘usi o‘qituvchinng kommunikativligini, nutqini rivojlantirish. Bunda e’tibor o‘qituvchining pedagogik kompetentligini shakllantirishga qaratiladi.

Bugungi kunda oliy o‘quv yurtlaridagi biologiya fanlari talabalarini amaliyot davomida yangi zamonaviy texnologiyalaridan foydalanishning samarali usullari, turlari, muammolarida hamda yangi zamonaviy texnologiyalari, vazifalarni, ta’limiy vazifasi, ko‘rgazmalilik vazifalari, nazorat vazifalarni, rivojlantiruvchi vazifasi, tarbiyaviylik vazifasi, o‘quvchilar ilmiy dunyoqarashini rivojlantiruvchi vazifasi yangi zamonaviy innovatsion axborot texnologiyalarini qo‘llash mahsulotlari hamda yangi zamonaviy texnalogiyalarning maqsadlari haqida maqolada fikr yuritiladi. Biolog talabalar amaliyoti davomida darslarni innovatsion texnologiyalar: didaktik o‘yin texnologiyasi, muammoli ta’lim texnologiyasi, hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi, loyihalash texnologiyalari va an’anaviy texnologiyalar kiradi. Biologiyani o‘qitishda lokal darajadagi pedagogik texnologiyalardan “Klaster” “Ven diagrammasi” va “Atamalar zanjiri” kabi texnologiyalardan foydalanish zarur. Klasterdan foydalanishda sinf o‘quvchilarini teng sonli guruhlarga bo‘linadi, o‘zлари klaster tuzib himoya qilinadi hamda eng yaxshi klaster tuzgan va yaxshi ta’riflagan guruh g‘olib deb aniqlanadi. Venn diagrammasi fakt

tushunchalarni tahlil qilish, sintezlash, taqqoslash ishlari olib boriladi. Atamalar zanjiri bu darslikdagi atamalar ro‘yxati va ularning ta’riflari haqidagi texnalogiyadir. Bu texnalogiyada o‘quvchilar guruhlarga bo‘linadi o‘quvchilar atamalarga ta’rif berishlari yoki ta’riflar orqali atamalarni topishi kerak bo`ladi. Bu usul xotirani mustahkamlashda foyda bo`ladi. Amaliyot davomida talabalarning biologiyani o`qitishning eng samarali usullaridan biri axborot texnologiyalaridan foydalanishdir. Bularning vazifalari: Ta`limiy vazifasi –bu o‘rganilayotgan mavzuni tushunchalar va ularning izohlari jadvallar, diagramma, asosiy qo`shimcha materiallar yordamida tushunishiga yordam beradi. Ko‘rgazmalilik vazifasi –animatsiyalar o‘quvchilar tomonidan biologik jarayonlarni harakat va dinamik tasvirlash imkonini mavjud. Nazorat vazifasi – o‘quvchining qay darajada o‘zlashtirgani, baholash tizimi haqqoniy bo‘lishiga zamin yaratadi. Rivojlantiruvchi vazifasi –vazifalar qiyinlik darajisidagi tartibda qo‘yilib o‘quvchining bilmaganlarini izlab o‘rganishiga o‘tilgan mavzularni mustahkamlashga zamin yaratadi. Tarbiyaviy vazifasi – aqliy va o‘quv ko‘nikmalarini o‘zlashtiradi. Biologiyani o‘qitishda quyidagi axborot texnologiyalari mahsulotlaridan foydalanish mumkun. O‘qituvchining kasbiy standartini amalga oshirish sharoitida metodika kursi ilgari odatiy bo‘lmagan funksiyalarni bajarishi kerak: talabalarning bilim va ko‘nikmalarini tuzatish va integratsiyalash, shu jumladan. asosiy o‘quv dasturining turli bloklari fanlarini o‘rganishdan olingan biologiya bo‘yicha; ko‘p bosqichli oliy pedagogik ta’lim tizimida talabaning individual ta’lim traektoriyasini tuzishda yordam berish. Uslubiy fanlar bakalavrlar, magistrler va doktarantlarning individual kasbiy va shaxsiy o‘zini o‘zi belgilashi, ijodkorligini rivojlantirish uchun maxsus ta’lim maydoni va muhiti, va talaba shaxsining o‘zi tanlov va qarorlar qabul qilish erkinligiga qaratilgan mutlaq qadriyat sifatida qaraladi. Universitetda ta’limni axborotlashtirish sharoitida biologiya o‘qitish metodikasi mazmunini o‘quv jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Innovatsion o‘qitish usullari o‘qituvchilarning ijodiy va innovatsion faoliyati tajribasini shakllantirishga imkon beradi, bu esa pirovardida mutaxassisning malakasi va uning mahoratiga ta’sir qiladi. Innovatsion ta’limning xususiyatlari: oldinga harakat qilish, rivojlanishni bashorat qilish; kelajakka ochiqlik; shaxsga, uning rivojlanishiga e’tibor berish; ijodkorlik elementlarining majburiy mavjudligi; sheriklik turi: hamkorlik, birqalikda yaratish, o‘zaro yordam va boshqalar. Ko‘pchilik olimlarning tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, eksperiment yoki

slayd namoyishi bilan boshlangan darslardagi akademik muvaffaqiyat ma’ruza usuli bilan boshlangan darsga qaraganda yuqoriroqdir.

Tabiatshunoslikni o‘qitishda dars boshida o‘quvchilarning laboratoriya tajribasidan yoki slayd ko‘rsatishdan foydalanish o‘quvchilarning e’tiborini tortadi va rag‘batlantiradi. Biroq, faqat og‘zaki ma’ruzadan foydalanish talabalarni zeriktiradi va unga e’tiborini yo’qotadi. Laboratoriya ma’ruza zallariga qaraganda (ayniqsa, katta sinflar uchun) qulayroq o‘quv muhitidir, chunki u talabalarga real hayotiy vaziyatlarni taqdim etadi va muammoni hal qilish ko‘nikmalarini amalga oshirish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, talabalar amaliy tajriba, faol fikrlash va bilimlarni aks ettirish uchun ko‘proq vaqt va imkoniyatlarga ega. Bundan tashqari, jamoaviy ish muhiti talabalarni o‘zlarining shaxslararo ko‘nikmalarini mashq qilishga, shuningdek, jamoaviy ruh va yetakchilikni tarbiyalashga undaydi. Nihoyat, og‘zaki taqdimotlar o‘quvchilarga aqliy javob va taqdimot mahoratini oshirish imkoniyatini beradi. Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra, eksperiment va slayd namoyishi bilan boshlangan darsda eslab qolish (esdalik) darajasi ma’ruza bilan boshlanganidan yuqori bo‘lgan. Chunki odamlar o‘qiganlarining 10%, eshitganlarining 20%, ko‘rganlarining 30% va amaliy tajribaning 90%ini eslab qolishadi. Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilar ongi va qalbiga milliy istiqlol g‘oyasini sindirishda biologiya darslari, ekskursiyalar, darsdan va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish, mavzu mazmuniga bog‘liq holda ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, mustaqillik prinsiplari va Ona-Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashgakatta e’tibor berish lozim. Barcha bilimlarni o‘zlashtirish uchun mashq eng yaxshi usul hisoblanadi. Mashq nafaqat biologiya ta’limida balki barcha soha bilimlarini o‘zlashtirishda ham ijobiy natija beradi. Darsni samarali tashkil etish, unda pedagog faoliyati va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni beqiyosdir.

Xulosa qilib aytganda, amaliyotchi talabalarning amaliy darslari davomida o‘quvchilar ongi va qalbiga milliy istiqlol g‘oyasini sindirishda biologiya darslari, ekskursiyalar, darsdan va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish, mavzu mazmuniga bog‘liq holda ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, mustaqillik prinsiplari va Ona-Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashgakatta e’tibor berish lozim. Barcha bilimlarni o‘zlashtirish uchun mashq eng yaxshi usul hisoblanadi. Mashq nafaqat biologiya ta’limida balki barcha soha bilimlarini o‘zlashtirishda ham ijobiy natija beradi. Darsni samarali

tashkil etish, unda pedagog faoliyati va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni beqiyosdir

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арбузова Е. Н., Яскина О. А. Проектирование рефлексивной системы обучения с применением инновационного учебно-методического комплекса по методике обучения биологии //Москва. – 2015
2. Biologiya: Umumiyl o‘rta ta’lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik: 1-nashr / Mualliflar: A.G‘afurov, A.Abdukarimov, J.Tolipova va.b. – T.: Sharq, 2018
3. Mavlonova G. D., Jumamurodova G. B. Biologiyani o‘qitish metodikasida zamonaviy metodlar // European Journal of Interdisciplinary Research and Development. 2023.
4. Murtozayeva M.M. Bo‘lajak o‘qituvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish (O‘rta Osiyo allomalarining ekologiyaga oid qarashlari asosida). Monografiya. – T.: Fan, 2010.
5. Oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonida ilg‘or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi: amaliyot va istiqbollar|| ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, – T.: Universitet, 2018 yil 25 oktabr.
6. Innovatsion ta’lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. – T.: Sano standart, 2015.